

**CONSIDERATIONS ON THE CREATION OF A CONCORDANCE OF ALISHER NAVOI'S WORKS***Abdurakhim Mutalovich Mannonov**DSc, professor**TSUOS**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: concordance, social and philosophical view, stylistics, vocabulary, explanatory dictionary, frequency dictionary, encyclopedia, lexicography.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: This article deals with the concordance of the works of Alisher Navoi, the linguistic features, artistic aspects of his works, the socio-philosophical views of the poet, and the spiritual and educational value. The article also discusses stylistic issues, in particular, perfect frequency and explanatory dictionaries of the vocabulary of Navoi's works, and notes that the concordance serves as the main source for creating an encyclopedia and conducting new research.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING KONKORDANSINI YARATISHGA OID MULOHAZALAR*Abdurahim Mutalovich Mannonov**filol. f. d., professor**TDSHU**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: konkordans, ijtimoiy-falsafiy qarash, uslubshunoslik, so'z boyligi, sanama so'zligi, izohli lug'at, ensiklopediya, leksikografiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining konkordansi, asarlarning til xususiyatlari, badiiy jihatlari, shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy qimmatlari, uslubshunoslik masalalari, xususan, Navoiy asarlari so'z boyligining mukammal sanama so'zligi, izohli lug'ati va ensiklopediyasini ishlab chiqish hamda yangi-tadqiqotlarni olib borish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilishi xususida so'z boradi.

**СООБРАЖЕНИЯ О СОЗДАНИИ КОНКОРДАНСА ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА
НАВОИ***Абдурахим Муталович Маннонов**Д.ф.н. профессор**ТГУВ**Иашкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: конкорданс, социально-философский взгляд, стилистика, словарный запас, толковый словарь, частотный словарь, энциклопедия, лексикография.

Аннотация: В данной статье речь идет о конкордансе произведений Алишера Навои, о языковых особенностях, художественных аспектах его произведений, общественно-философских взглядах поэта, духовно-просветительской ценности. В статье также рассматриваются стилистические вопросы, в частности, совершенный частотный и толковый словари лексики произведений Навои, и отмечено, что конкорданс служит основным источником для создания энциклопедии и проведения новых исследований.

KIRISH

Ma'lumki, konkordans u yoki bu ijodkor ishlatgan jami so'z va iboralar yig'indisi bo'lib, u adiblarning so'z qo'llash mahorati, so'z boyligi va ularning qator morfologik, sintaktik, leksikografik qatlamlarini tadqiq etishga qaratilgan fan sohasi hisoblanadi.

Jahon leksikografik tadqiqotlarida konkordans bilan bog'liq yirik-yirik ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Firdavsiy, Rumi, Sa'diy, Xofiz Sheroziy, Shekspir, Gyote, Bayron, Pushkin, Lermontov, Dostoyevskiy, T. Shevchenko, I. Franko va boshqalarning asarlarining to'la matni va konkordansi, izohli lug'atining elektron variantlari ishlab chiqilib, butun dunyoga tarqatilmoqda. Ammo Navoiy "Xamsa" dostonlarining jome' lug'ati, ya'ni konkordansini yaratishga 2012-yildan kirishildi. Bu aynan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti olimlari: professorlar Ahmadjon Quronbekov rahbarligida 2012-2016-yillar davomida "Xamsa" dostonlarining ilk bor 5 jildlik salmoqli konkordansini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

ASOSIY QISM

Konkordans tuzuvchilar Navoiy asarlari ichidan "Xamsa"ni tanlaganliklari bejizemas edi. Sababi, ushbu beshlikda Xuroson va Movarounnahr o'zbeklari tilida qo'llanib, ammo qomuslarda aks etmagan noyob so'z va so'z shakllari, iboralar boyligi aks etgan. Olimlar konkordans tuzishda quyidagi to'rtta muhim va mo'tabar manbalarga suyardilar.

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalarni o'rganish markazida saqlanayotgan "Xamsa"ning Abdujamil kotib tomonidan ko'chirilgan nusxasi.

2. Alisher Navoiy dostonlarining yirik matnshunos Porso Shamsiyev tomonidan tuzilgan tanqidiy matnlari.

3. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot hamda qo‘lyozmalar instituti olimlari tomonidan 1987-2003-yillarda tayyorlangan 20 jildlik mukammal asarlar to‘plami.

4. Shoirning 2011-yilda nashr etilgan 10 jildlik to‘la asarlar to‘plami.

Konkordans tuzuvchilar oldida bir qator murakkab muammolar yuzaga chiqqan edi. Avvalo, aytish lozimki, o‘z davrida arab yozuvida bitilgan dostonlar matni asosida so‘z chegarasi, unli tovushlar, so‘z shakllarining turli variantlarda ifodalanishi va hokazolar kabi masalalarda dastlab aniq fikrga kelish oson bo‘lmadi. Aytish lozimki, hozirgacha Navoiy lug‘at boyligi ustida ilmiy ish olib borgan tadqiqotchilar ayni so‘z chegarasi masalasida aniq bir prinsip bilan ish olib borganliklari ma‘lum emas. Shuningdek, Navoiy asarlarining dunyoning yetakchi sharqshunoslik markazlarida shakllangan ilmiy mezonlarga amal qilingan, ilmiy transkripsiya ishlamlarining yo‘qligi ham dostonlardagi so‘z shakllari va ularning variantlarini transkripsiyalashda va konkordansni nashrga tayyorlashda jiddiy muammolarni yuzaga keltirgan edi. Chunki amalda bo‘lib kelgan kirill va lotin yozuvidagi matnlarda umuman hisobga olinmaydigan maxsus arabiy harflar (ya‘ni, tovushlar) خ ح ث ع ص ض ط ظ ذ xalqaro transkripsiyada qabul qilingan maxsus belgilar bilan ifodalanishi hamda hech bir joriy alifboda o‘z aksini topmagan نگ (ng) tovushi uchun ham alohida ѱ belgi ishlatilishi va, eng muhimi, she‘rdagi aruz vazni talab qiladigan qisqa va cho‘ziq unilarning ajratilishini to‘liq ta‘minlashga erishishni amalga oshirishni talab qilardi.

Umuman olganda, ushbu konkordanslar Navoiy “Xamsa” dostonlarining benihoya boy so‘z shakllariga ega ekanligini isbotlab berdi. Konkordans tuzuvchilarining hisob-kitobiga ko‘ra, Alisher Navoiyning “Xamsa”siga kirgan dostonlarda, qaytariqlar bilan, jami 65278 ta so‘z shakli ishlatilganligi ma‘lum bo‘ldi va bu son faqat “Xamsa”ga tegishlidir.

Ushbu konkordans xalqaro miqyosda Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlari, badiiy jihatlari, shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ma‘naviy-ma‘rifiy qimmatini, uslubshunoslik masalalari, xususan, Navoiy asarlari so‘z boyligining mukammal sanama so‘zligi, izohli lug‘ati va ensiklopediyasini ishlab chiqish hamda yangi-yangi tadqiqotlarni olib borish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilishiga shubha yo‘q.

Shu bilan birga, bu yo‘nalishda qilinadigan ulkan ishlar hali oldinda. Jumladan, Alisher Navoiyning ham shaklan, ham mazmunan benihoya boy lirik merosi va “Majolisun-nafois”, “Muhokamatul-lug‘atayn”, “Mezonul-avzon”, “Mahbubul-qulub”, “Xamsatul-mutaxayyirin”, “Tarixianbiyovahukamo”, “Tariximulukiajam”, “Nasoyimul-muhabbat” va boshqa nasriy va nazmiy asarlarining konkordansini tuzish masalasi ham kechiktirib bo‘lmas vazifalardandir. Konkordans tuzish jarayonida bu asarlarning har biriga tegishli bo‘lgan tarkibiy tizimi, ulardagi she‘riy va nasriy bayonlarning so‘z shakllarini aniq tavsiflashga qaratilgan me‘yoriy-dasturiy

yondashuvlar va mezonlarini ishlab chiqish taqozo qilinadi.

Nazarimizda, avvalo, “Xamsa” dostonlari konkordansining elektron va bosma shakldagi majmuini yaratish jarayonida qo‘lga kiritilgan natijalar va tajribalar asosida adibimizning “Xamsa”dan bo‘lak yuqorida zikr etilgan asarlarining quyidagi shakllardagi konkordanslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

1. *Navoiy asarlarining so‘z shakllari konkordansi*. Bunda har bir she‘riy va nasriy asardagi so‘z shakllarining qanday kelsa shunday berilishi lozim bo‘ladi va konkordansining bu turi, birinchi navbatda u yoki bu asarda qo‘llanilgan barcha so‘z shakllarining to‘liq miqdorini aniqlashgaimkonyaratadi. Bundantashqari, ushbu konkordanso‘z bektilining tarixiy grammatikasi, fonetikasi, semantikasi, so‘zlarning shakliy o‘zgarishlari, so‘z yasalihi, so‘z shakllarining variant va invariantlari tadqiqoti va boshqa maqsadlar uchun boy material bo‘lib xizmat qiladi.

2. Navoiy asarlarida *sodda va qo‘shma fe‘llar konkordansi*. Bu shakldagi konkordans tuzishdan maqsad, adibning muayyan asarida qanday sodda fe‘llar va qanday qo‘shma fe‘llar qancha miqdorda ishlatilganligini aniqlashdan iborat.

Asardagi fe‘llarning tarkibi, fe‘l variantlari, sinonimik va antonimik qatorlar paradigmasi, fe‘lning grammatik kategoriyalari va mahsuldorligi hamda fe‘llarning semantik belgilari va ular tarkibidagi o‘z qatlam hamda o‘zlashgan qatlam va boshqa ko‘p masalalarni o‘rganish uchun alohida fe‘liy qatordan tuzilgan bu konkordans shakli Navoiy asarlaridagi fe‘liy kategoriyalar bo‘yicha tadqiqot olib bormoqchi bo‘lganlar uchun tengsiz ilmiy material vazifasini o‘taydi.

3. Alisher Navoiy ijodiyotida, xususan, uning she‘riyatida frazeologik birliklar miqdori va ma‘nolari qirralarini ufqi ko‘rinmaydigan ummonga qiyoslash mumkin. Shoir she‘riyati matnida, uning boy badiiyati olamida frazeologik birliklarning variantlari, sinonimik, antonimik qatorlari, ko‘p qatlamli tovlanishlari, ma‘no o‘zgarishlari va qo‘llanishi miqdori bilan bog‘liq yana bir qadar masalalarni o‘rganish, tadqiq etish uchun, avvalo, ulug‘ adib asarlaridagi *frazemalar konkordansini* tuzib olish galdagi muhim vazifalardandir.

4. Alisher Navoiy asarlari gap tarkibini tashkil etuvchi erkin so‘z birikmalariga nihoyatda boydir. Bular moslashuv, boshqaruv, bitishuv, ko‘makchi, izofiy va bog‘lovchi kabi erkin so‘z birikmalaridan iborat bo‘lib, ushbu erkin so‘z birikmalari va ularning morfologik, sintaktik va semantic bog‘lanishi hamda valentligini o‘rganish uchun bu *so‘z birikmalarining alohida konkordansini* tuzish ham maqsadga muvofiqdir.

5. Navoiy asarlarida juda katta miqdorda, variantlarda ishlatilgan o‘zak affiksial morfema va yordamchi so‘z morfemalarini o‘rganish uchun muayyan matndagi so‘z shakllarini alohida-alohida morfemalarga ajratib, ular asosida *morfemalar konkordansini tuzish* ham muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Chunki, aynan morfemalar konkordansi jami qo‘shma reduplikativ so‘zlarning tarkibi, yasalihi usullari, so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslarning tarkibi,

modellari va mahsuldorligi va boshqa masalalarni tadqiq etishga asosli ilmiy imkoniyat yaratadi.

Navoiy asarlarining tili, uslubi, misralari, baytlarida muhrlanib qolgan badiiy kashfiyotlari, balog‘ati masalasi ham yangi davr o‘zbek navoiyshunosligi izlanishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlar qatoridadir. Navoiy asarlari yangi mezondagi leksikografik tadqiqotlarga muhtoj. Navoiy ijodida asrlar davomida xalqning nutq amaliyotida sinovdan o‘tgan va so‘zlashuvda muqim o‘rnashgan minglab sof, o‘zbekcha leksik birliklar borki, ularning bugungi o‘zbek tili muloqot amaliyotida qo‘llash va izohli lug‘atlarga kiritishning vaqti keldi. Ayniqsa, hozirgi o‘zbek tilining sehra latofati, tarovati, shirasi bir qadar kamaygan kezlarda bu masala o‘ta muhim sanaladi.

Alisher Navoiy asarlarining yuqorida zikr etilgan yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borish, shoir asarlari konkordanslarini yaratishga kirishishdan oldin bir qator quyidagi masalalarni hal qilib olishga to‘g‘ri keladi. Bu, avvalo, Navoiyning “Xamsa”dan bo‘lak qolgan barcha nasriy va nazmiy asarlarining matnshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish va ularning mukammal ilmiy nashrlarini xalqaro ilmiy transkripsiya asosida tayyorlash birlamchi va dolzarb masalasidir.

Afsuski, Alisher Navoiydek buyuk dahoning ulkan ijodiy merosining to‘liq ilmiy-tanqidiy akademik nashri masalasi hamon ochiq qolmoqda. Nazarimizda yaqin o‘n yillikda jahon ilmiy jamoatchiligi orziqib kutayotgan Navoiyning bunday nashri amalga oshmasa kerak. Sababi faqat malakali matnshunos mutaxassislarning yetishmasligida emas, balki, bu dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan masalaga davlat ishi sifatida qaralmayotganligidadir.

To‘g‘ri, Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganishda jahon navoiyshunosligi ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Uning O‘zbekistonda krill alifbosida nashr etilgan 20 va 10 jildlik asarlarining mukammal majmuasi yoki 2014-2017-yillar davomida eski o‘zbek arab imlosida, Afg‘onistonda zahmatkash olim Abdulla Ruyin tomonidan tayyorlanib, chop etilgan deyarli barcha asarlarining 27-jildligi zalvorli yutug‘imizdir.

Ammo Navoiy merosidan faqat “Xamsa” dostonlariva “Majolisun-nafois” tazkirasidan bo‘lak mukammal ilmiy-tanqidiy matnga ega bo‘lgan boshqa asari yo‘qligi o‘ta taassuflidir. Fikrimizcha, Navoiy asarlarining to‘liq tanqidiy nashrlarini tayyorlashga kirishish barobarida, uning dunyo qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan, shoir hayotlik davrida va undan keyingi davrlarda ko‘chirilgan eng to‘liq qo‘lyozma nusxalarini zudlik bilan faksimil nashrlarini amalga oshirish, ularni internet tarmog‘iga joylashtirish uchun har qancha mablag‘ talab qilinsa ham, bu ishga kirishish lozim. Chunki hozirgi sharoitda bu dahoning qaysidir mavjud noyob qo‘lyozma asarining bedarak yo‘qolish xavfi yoki ofatga uchrashi mumkinligiga qarshi mukammal kafolatlar yo‘qdir.

XULOSA

Albatta, bu ishlarni amalga oshirish uchun yangi davr navoiyshunoslar avlodini tarbiyalash lozim va bu kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardandir. Maktablarimiz bitiruvchilari, talabalarimiz Alisher Navoiy she‘riyatining o‘nlab namunalarini yoddan bilishlarini shart qilib qo‘yish lozim. Umuman, jamiyatda kechayotgan tub o‘zgarishlar, ma‘naviy tiklanishlar davrida Alisher Navoiy ijodini bobolarimizning merosiga yangicha ilmiy qarashlar, yondashuvlar asosida tahlil etish va ilmiy nashrlarini amalga oshirish yangi davr o‘zbek navoiyshunosligining bosh vazifasidir. Buning uchun yurtimizda ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy va ilmiy asoslar yetarli. Ushbu tarixiy imkoniyatni qo‘ldan boy bermaslik uchun soha vakillari va millatdoshlarimiz hazrat Alisher Navoiy tegrasidan birlashmog‘i kerak.